

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

Axbayeva Gulnora Bozorboyevna

G‘allaorol tumani 73-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida badiiy adabiyotnamunalaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. tadqiqot badiiy asarlar orqali bolalarda axloqiy qadriyatlar, vatanparvarli, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish, ularning nutqini, tafakkurini va esteti didini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada badiiy adabiyotni tanlash mezonlari, dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda qo‘llash metodlari, shuningdek, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ilgari surilgan. Olingan natijalar badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini tasdiqlaydi va uning o‘quv jarayoniga integratsiyasini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, tarbiya, badiiy adabiyot, pedagogik imkoniyatlar, axloqiy qadriyatlar, kitobxonlikmadaniyati, ta‘lim.

Har bir yangi davr inson tafakkurining o‘zgarishi, dunyoqarashi tushunchasida tub burilishlar ro‘y berishi bilan taraqqiyot sari ilgarilab boradi. Ijtimoiy hayotdagi tadrijiy taraqqiyot, ilm-fan yutuqlari kishilik jamiyatining ma‘naviy yuksaltirgani sayino‘z tarixi, qadriyatlari tamadduni hamda istiqboli haqidagi qarashlari kengaydi. Buning ifodasi adabiyotda xususan bolalar adabiyotida ham aks etishi tabiiy. Bolalar adabiyoti pedagogika bilan mustahkam bog‘langandir. bu ikki fanning maqsad vazifasi bir: yosh avlodga chinakam aqli, axloqiy, estetik, tarbiya berish, ularni davrimizning munosib farzandlari qilib yetishtirishdir. Bolalar yozuvchilari o‘z asarlari bilan yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o‘stirib, chiniqtirishda, ularni vatanpar va mehnatsevar

kishilar qilib tarbiyalashda, xalqqa mustaqil vatanimizga katta yordam berishlari kerak.

Ulug' mutafakkir Ibn Sino bundan ming yillar avval yozgan "Axloq haqidagi risola"sida shunday yozadi. Tarbiyani bolaning eng yosh paytidan boshlash kerak, zero unga yaxshi xilq odat bo'lib qolsin". Bu kabi fikrlar Unsurulmaoliy, Kaykovus , Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mumtoz so'z san'atkorlarning didaktik asarlarida ham singdirilgan. XX-asr boshlarida esa Abdulla Avloniy o'zining pedagogic risolasida tarbiyaning zamoni haqida mulohaz yuritib,shunday yozadi: "Emdi oshiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan..."

Badiiy adabiyot namunalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi shart sharoitlarni hisobga olishi lozim.

- Asar tanlashda o'quvchining yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarligini e'tiborga olish.
- Matnni o'rganishda interfaol metodlardan (munozara, rolli o'yin, sahnalashtirish,"fikrlash zanjiri" usuli va boshqalar) foydalanish;
- Asar mazmuni asosida axloqiy muammolarni muhokama qilishga o'quvchilarni jalb etish;
- Matndan olingan g'oyalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash;
- Shuningdek , xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish o'quvchilarni milliy g'urur , qadriyatlar va urf-odatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlaydi. Ertak va maqollar yaxshilik yomonlikka qarshi qo'yiladi, bu esa bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy matn asosida olib boriladigan axloqiy tarbiya faqat ma'naviy bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchining faolligini oshiradi, ijobiy shaxsiy sifatlarni mustahkamlaydi, hayotiy qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Shu bois, boshlang'ich sinfda adabiy matnlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish-bu zamonaviy ta'limning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Umuman olganda , o‘quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda adabiy matnlar:

- Shaxsiy o‘shish vositasi sifatida bolaning ichki dunyosini boyitadi;
- Kommunikativ muhit yaratadi, muloqot va fikr almashuvni boyitadi;
- Axloqiy refleksiya jarayonini faollashtiradi;
- Bola o‘z xatti-harakatini baholashni o‘rganadi;
- Milliy qadriyatlar targ‘ibotchisi sifatida o‘zligini anglashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida adabiy matnlardan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat badiiy-estetik, balki ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishdagi samarali metodika o‘quvchini ezgulik, insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. –T Adolat , 2020.-48b.
2. Xolmatova N. Boshlang‘ich sinfda axloqiy tarbiyani shakllantirish metodikasi- Toshkent: Fan va texnologiya .2019.112b
3. G‘ulomova A, Husanova R. Pedagogika nazariyasi va tarbiya metodikasi.- T.: Universitet nashriyoti. 2020-154-b.
4. Karimova V. Psixologiya : Yosh davrlari va tarbiya psixologiyas – T:O‘zbekiston , 2016,-245b.